




RELATIONSHIP OF PASHTO DIALECTS WITH LITERARY LANGUAGE AND THEIR ROLE IN SOCIAL LIFE (BASED ON THE DIALECTS OF KANDAHAR, NANGARHAR, KABUL, AND PAKTIYA)

Kamila Abduqodirova

3rd-year student of the Persian-English group
Faculty of Eastern Civilization and Philosophy
Tashkent State Institute of Oriental Studies

Oʻ. Abduvaliyeva

Senior Lecturer at the Faculty of Persian and Afghan Studies
Tashkent State Institute of Oriental Studies
Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Indo-European language family, geographic conditions, western dialect, eastern dialect, central dialect, southern dialect, communicative significance, pronunciation, methodization.

Received: 28.04.25

Accepted: 10.05.25

Published: 14.05.25

Abstract: Studying the Pashto language dialects is considered one of the important issues. The significance of this issue is that any national language, whether it is an official state language or a local language, relies on dialects, and these dialects influence the literary language. It is also noteworthy that, depending on social conditions, the dialects that affect the literary language may change over time. The relationship between dialects and the literary language is a complex process and is linked to social factors, such as geographic conditions, politics, the development of economic centers, urban growth, and others. This article is dedicated to shedding light on the relationship between Pashto dialects and the literary language in Afghanistan, a multilingual country.

PASHTU LAHJALARINING ADABIY TIL BILAN BOʻLGAN MUNOSABATI VA ULARNING IJTIMOY HAYOTDAGI OʻRNI (QANDAHOR, NANGRAHOR, KOBUL VA PAKTIYO LAHJALARI ASOSIDA)

Kamila Abduqodirova

3-kurs pashtu-ingliz guruhi talabasi

“Eronshunoslik va afg‘onshunoslik” oliy maktabi

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

O‘. Abduvaliyeva

PhD

“Eronshunoslik va afg‘onshunoslik” oliy maktabi o‘qituvchisi

TDSHU

Toshkent, O‘zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: Hind-Yevropa tillari oilasi, geografik sharoit, g‘arbiy lahja, sharqiy lahja, markaziy lahja, janubiy lahja, kommunikativ ahamiyat, talaffuz, metoteza.

Annotatsiya: Pashtu tili lahjalarini o‘rganish muhim masalalardan sanaladi. Bu masalaning muhimligi, shu bilan belgilanadiki, har qanday milliy til, xoh u rasmiy davlat tili bo‘lsin, xoh mahalliy til bo‘lsin, lahjalarga suyanadi, lahjalar esa adabiy tilga ta‘sir ko‘rsatib turadi. Shunisi ham diqqatga sazovorki, ijtimoiy sharoitga ko‘ra adabiy tilga ta‘sir ko‘rsatadigan dialektlar almashinib turishi mumkin. Lahjalarning adabiy til bilan munosabati esa murakkab jarayon bo‘lib, u ijtimoiy omillar bilan bog‘liq. Xususan, geografik sharoit, siyosat, iqtisodiy markazlar rivojlanishi, shaharlar taraqqiyoti va boshqalar. Mazkur maqola ko‘p tilli mamlakat hisoblangan Afg‘onistondagi pashtu lahjalarining adabiy til bilan bo‘lgan munosabatini yoritishga bag‘ishlanadi.

ОТНОШЕНИЕ ПУШТУНСКИХ ДИАЛЕКТОВ К ЛИТЕРАТУРНОМУ ЯЗЫКУ И ИХ РОЛЬ В ОБЩЕСТВЕННОЙ ЖИЗНИ (НА ОСНОВЕ ДИАЛЕКТОВ КАНДАГАРА, НАНГАХАРА, КАБУЛА И ПАКТИПЫ)

Камила Абдукодирова

Студент 3-го курса группы пушту-английского отделения

Факультет "Персидская и афганская филология"

Ташкентский государственный институт востоковедения

О. Абдувалиева

кандидат наук

преподаватель факультета персидской и афганской филологии

Ташкентского государственного института востоковедения

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Индоевропейская языковая семья, географические условия,

Аннотация: Изучение пуштунского языка является важной

западный диалект, восточный диалект, центральный диалект, южный диалект, коммуникативное значение, произношение, методизация.

проблемой. Важность этой проблемы заключается в том, что любой национальный язык, будь то официальный государственный язык или местный язык, основывается на диалектах, и эти диалекты влияют на литературный язык. Также стоит отметить, что в зависимости от социальных условий диалекты, влияющие на литературный язык, могут изменяться. Отношение между диалектами и литературным языком является сложным процессом и связано с социальными факторами, такими как географические условия, политика, развитие экономических центров, рост городов и другие. Эта статья посвящена освещению отношений между пуштунскими диалектами и литературным языком в многоязычной стране Афганистане.

Hind-Yevropa oilasiga mansub tillar ichida eroniy (oriy) tillarning salomog'i kattadir. Bu guruhga birinchi navbatda, shimoli-sharqiy eroniy tillar sirasiga kiruvchi pashtu tili hamda bir qator Pomir tillari (shug'ni, ro'shoni, sangliche, munji) kiradi. Ma'lumotlarga ko'ra, hozirgi kunda Afg'oniston aholisi so'zlashadigan tillar va yirik dialektlar soni o'ttizdan oshiq bo'lib, mamlakatda bunday etnolingvistik holatning vujudga kelishi bir qator omillar bilan bog'liq. Bulardan biri o'lkaning turli etnik areallar tutashgan mintaqada joylashganligi bo'lsa, yana bir omili mamlakatning murakkab geografik sharoitidir.

"Pashtu tilining umumiy adabiy me'yorlarini ishlab chiqishda oldiniga Qandahor dialekti, keyin Nangrahor lahjasiga suyanildi. Keyingi davrda yozuvchilar doirasida, madaniyat xodimlari orasida, aholining boshqa tabaqalari ichida Paktiyo (janubiy) lahja namoyandalari tobora ko'proq namoyon bo'lmoqda". Bunga qo'shimcha qilib aytish mumkinki, so'nggi yillar ichida Afg'onistonda ro'y bergan notinchliklar mamlakat aholisini, jumladan, pashtunlarning keng miqyosda mamlakat bo'ylab siljishlariga, urush qochqinlari sifatida chet ellarga muhojirat qilishlariga olib keldi. Buning natijasida mamlakatdagi til vaziyati o'zgardi, pashtu tilining ma'lum mintaqalarda yoyilgan lahjalari namoyandalari o'zaro aralash holatda yashashlariga olib keldi. Buning oqibatida lahjalarning o'zaro ta'siri kuchaydi.

Bu omil Kobuldagi til vaziyatiga ham jiddiy ta'sir etdi. Gap shundaki, Kobul dariyzabon shahar hisoblanib kelgan, ammo so'nggi yillar mobaynida xorijdagi qochqinlarning vatanga qaytishi va ularning ko'pincha Kobulda turib qolishi, viloyatlardagi notinchlik tufayli u yerdagi aholining bir qismi Kobulga kelib joylashishi tufayli bu shahardagi til vaziyati o'zgardi. Kobulga ko'chib o'tgan turli lahjalar namoyandalari so'zlashuv amaliyoti tufayli lahjalar orasidagi o'zaro ta'sir jarayoni tezlashdi. Bu jarayon pashtu tilining Kobul lahjasi shakllanishi ehtimolini yuzaga keltirdi.

Yuqorida sanab o'tilgan voqealar Afg'onistondagi pashtu lahjalarining adabiy til bilan bo'lgan munosabati nechog'lik dolzarb ekanidan dalolat beradi. Bu masalani o'rganish mazkur adabiy tilni o'rganishda qaysi lahjalarga ko'proq ahamiyat berish bo'yicha strategiyani ishlab chiqishga ham yordam beradi.

Mazkur mavzuni yoritishda o'zbek tilshunoslaridan R. Inomxo'jayevning "Pashtu tili grammatikasi", A. Mannonovning "Sharqshunoslik masalalari", ingliz olimlaridan Boyl Devidning "Descriptive grammar of pashto and dialects", Habibulla Tegay, Barbara Robsonning "A reference grammar of pashto", rus tilshunoslaridan N.A. Dvoryankovning "Литературный язык и диалекты пашто в Афганистане", undan tashqari Elburs Satsayevning "Южные диалекты языка пашто" avtoreferati, hamda afg'on tilshunoslaridan Muhammad Ali Dinakhelning "Comparison of two dialects of pashto", spoken in Afghanistan and Pakistan: Kandahari dialect and Yusufzai dialect", Habibulla Haseebning "پښتو لهجوي قاموس" asarlaridan foydalanildi.

Pashtu adabiy tilida lahjalar juda ko'p. Yirik afg'on olimi N.A. Dvoryankov pashtu tilida so'zlashuvchi asosiy 40 ta lahjalarni sanab o'tgan. Masalan: Afridi, Bangash, Banuchi, Durrani, Gilzay, Xattak, Xosti, Sherani, Tanivola, Vardak, Yusufzay, Zadran va boshqalar. Ammo, pashtu tilining to'rtta asosiy, keng tarqalgan lahjasi mavjud. Bular quyidagilar: Qandahor (g'arbiy lahja), Nangrahor (sharqiy lahja), Kobul (markaziy lahja) va Paktiyo (janubiy lahja). Qandahor lahjasida so'zlashuvchilar asosan Afg'onistonning janubi-g'arbiy qismida va Baluchistonda yashaydilar. Nangrahor lahjasida so'zlashuvchilar Afg'onistonning sharqiy qismlarida va Pokistonning Xaybar-Paxtunxvo viloyatlarida yashaydilar. Markaziy lahjada so'zlashuvchilar asosan Kobul, Lo'gar, Parvon va G'azni viloyatlarida yashaydilar. Janubiy lahjada so'zlashuvchilar esa, Paktiyo va Paktika viloyatlari istiqomat qiladilar.

Pashtu tilining aksariyat lahjalarida so'zlashuvchilarni boshqa dialektlarning deyarli barcha so'zlashuvchilari osongina tushunadilar, uzoq joylardan kelgan pashtunlar tomonidan tushunish qiyin bo'lishi mumkin bo'lgan alohida hududlarda joylashgan pashtunlar bundan mustasno.

Afg'onistonda 2004-yilda qabul qilingan yangi konstitutsiyaning 16-moddasiga ko'ra "Pashtu va dariy tillariga rasmiy davlat tili maqomi berilgan. Pashtu tilida dunyoda taxminan 40-42 million kishi muloqot qiladi. Bu so'zlovchilarning aksariyati Afg'onistonda bo'lib, taxminan 15-18 millionga yaqin axoli so'zlashadi. Pokistonda esa, bu ko'rsatkich 35-40 millionni ko'rsatadi. Pashtu tilida so'zlovchi jamoalar Hindiston (Uttar, Pradesh, Jammu, Kashmir), Eron (Afg'oniston bilan shimoli-sharqiy chegarasi), Tojikiston (Afg'oniston bilan janubiy chegarasi), shuningdek, Saudiya Arabiston, Birlashgan Arab Amirliklari, Avstraliya, Yevropa, Germaniya, Shvetsiya, Shimoliy Amerika, Kanadada pashtu tilida so'zlovchilarning ko'plab kichik jamoalari mavjud.

Ko'pgina dunyo tillari singari, pashtu tilida ham talaffuz, so'z yasalishi, tuzilish elementlari, lug'at boyligi va boshqa xususiyatlar bo'yicha farqlanadigan turli hududiy va mahalliy shevalar

mavjud. Kuzatishlarimiz natijasida pashtu tilining asosiy dialektlari o'rtasidagi farqlarni o'rganishda e'tiborga olish kerak bo'lgan 3ta asosiy jihat mavjud:

1. G'arbiy va sharqiy dialektlar orasidagi talaffuz farqlari, ayniqsa undosh tovushlar va retrofleks tovushlar bo'yicha. Nangrahor dialektida **ښ** harfi [x] undoshi, **ږ** harfi [g] undoshi sifatida talaffuz qilinadi. [ž.] undoshi til uchi tanglayning old qismiga tekkizilgan holda hosil qilinadi. Bu tovush oddiy [ž] undoshiga nisbatan yo'g'onroq va og'irroq talaffuz etiladi. Shuningdek, [ž.] undoshi pashtu tilining g'arbiy lahjasida, vazir, xatak, yusufzay lahjalarida ishlatiladi. Markaziy, sharqiy va janubiy (Paktiyo, Paktiko) lahjalarida bu tovush [g] bilan almashadi. Masalan:

Qandahor	Nangrahor	Kobul	Paktiyo	Tarjimasi	So'z
[tíž.a]	[tíga]	[tíga]	[tíga]	tosh	تیره
[ğwaž.]	[ğwag]	[ğwag]	[ğwag]	quloq	غور
[špaž.]	[špag]	[špag]	[špag]	olti	شپير
[ləž.]	[ləg]	[ləg]	[ləg]	kam	لږ

Sharqiy lahjada ayrim so'zlar talaffuz bo'yicha yozilishi hollari kuzatiladi, ya'ni **ږور** ning o'rniga **ږمنځ** **ږگور** o'rniga **ږمنځ** yozish hollari uchraydi.

[š.] undoshi til birmuncha orqaga tortilib o'rtasi ko'tarilgan holda talaffuz etiladi. Bu tovush oddiy [š] ga nisbatan yo'g'onroq va og'irroq yangraydi.

Retrofleks [š.] pashtu tilining g'arbiy lahjasiga xos tovush bo'lib, sharqiy va markaziy lahjalarda u [x] tovushi bilan almashtiriladi.

Qandahor	Nangrahor	Kobul	Paktiyo	Tarjimasi	So'z
[šə]	[xə]	[xə]	[xə]	yaxshi	بڼه
[š.ār]	[xār]	[xār]	[xār]	shahar	ښار
[puš.tə'na]	[puxtə'na]	[puxtə'na]	[puxtə'na]	savol	پوښتنه
[š.owúnkay]	[xowúnkay]	[xowúnkay]	[xowúnkay]	o'qituvchi	ښوونکی

Retrofleks [š.] sharqiy lahja vakillari tomonidan **ښ** bilan emas, balki **خ** bilan yozilishi hollari ham uchraydi. Masalan: **ږښتلی** [ğuš.tə'lay] / **ږختلی** [ğuxtə'lay] - kuchli, baquvvat.

Markaziy lahja vakillari **ښ** ni [x] shaklida talaffuz qiladilar, ammo ular talaffuzdagi [x] sharqiy lahja talaffuzidan farq qiladi. Sharqiy lahjada [x] kichik til-bo'g'iz tovushi bo'lsa, markaziy lahjada u til orqa, yumshoq tanglay undoshi sifatida yangraydi.

2. Tovushlarning o'rin almashishi ya'ni (metateza) holati, bu talaffuz farqlari bilan birga uchraydi. Masalan:

Qandahor	Nangrahor	Kobul	Paktiyo	Tarjimasi
----------	-----------	-------	---------	-----------

رغ [žag]	غر [gag]	غر [gag]	غر [gag]	ovoz
مُكه [mʃəka]	مُكه [zməka]	مُكه [zməka]	مُكه [zməka]	yer
كښته [kšəta]	بښته [xkəta]	بښته [xkəta]	بښته [xkəta]	quyi
ورخ [wraj]	روخ [rwaj]	روخ [rwaj]	روخ [rwaj]	kun
رغول [žagawól]	غړول [gagawól]	غړول [gagawól]	غړول [gagawól]	chalmoq

3. Shevalar orasidagi tafovutlarga (garchi bu mavzu imlo masalasidan chetga chiqsa ham) ayni bir tushunchani ifodalash uchun turli soʻzlar ishlatilishi, yaʼni leksik farqlarni ham kiritish lozim. Masalan, quyidagi soʻzlar turli dialektlarda turlicha aytiladi.

Tarjimasi			
“Kartoshka”	آلو [ālú]	کچالو [kačālú]	پټاټه [paṭāṭá]
“Doʻst”	ملگری [malgəray]	دوست [dost]	اندېوال [andewāl]
“Ona”	مور [mor]	ادی [ade]	ببی [babəy]

Bu kabi misollar ayniqsa gʻarbiy va sharqiy lahjalarida yaqqol koʻzga tashlanadi. Masalan:

Tarjimasi	Qandahor	Nangrahor
savol	پوښتنه [puštəna]	تپوس [tapós]
kalit	کلی [kilí]	کونجی [kunjí]
qiz bola	نجلی [njəloy]	جنی [jənəy]

Yuqorida keltirilgan misollar tahlili natijasida quyidagicha xulosaga kelish mumkin yaʼni pashtu tilidagi lahjalar talaffuz, soʻz yasaliishi, tuzilish elementlari, lugʻat boyligi va boshqa xususiyatlariga koʻra farqli va oʻxshash jihatlarga ega. Xususan, Qandahor lahjasida Nangrahor, Kobul va Paktiyo lahjalariga qaraganda fonetik va leksik tafovutlar koʻzga tashlandi. Va aksincha Nangrahor, Kobul va Paktiyo lahjalarida fonetik va leksik oʻxshashliklar koʻp kuzatildi. Bundan koʻrinadiki, sharqiy, markaziy va janubiy lahjalarning adabiy til bilan boʻlgan munosabati - ularning lingvistik va ijtimoiy ahamiyati gʻarbiy lahjaga qaraganda yuqori ekanligini koʻrsatadi. Mazkur yondashuv kelgusida dialektlar oʻrtasidagi grammatik va sintaktik farqlarni ham oʻrganish zarurati mavjudligini taqozo etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyhati:

1. Inomxojayev R. Pashtu tili grammatikasi. Monografiya. –T.: 2020. – 4b.
2. Inomxojayev R. Afgʻonistonda til vaziyati va til sohasidagi davlat siyosati. –T.: 2020. – 7b.
3. Маннонов А. Шарқшунослик масалалари. –Т.: 2022.

4. Дворянков Н.А. Литературный язык и диалекты пашто в Афганистане. – «Народы Азии и Африки», 1963. №2, С. 146.
5. Эълбурс Сацаев. “Южные диалекты языка пашто”. Москва 1988.
6. Boyle A.D. Descriptive grammar of Pashto and its dialects. – Germany, 2014.
7. Habibullah Tegey Barbara Robson, A reference grammar of pashto, Washington D.C, 1996. P20.
8. Muhammad Ali Dinakhel. “Comparison of two dialects of Pashto spoken in Afghanistan and Pakistan: Kandahari dialect and Yusufzai dialect”. Peshowar. 2020.
9. حبيب الله حسيب “کابل-۱۳۹۵”. قاموس لهجوي پښتو.